




Xorazm viloyatining sanoat ishlab chiqarishi (2020-yil yanvar-may)

Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari b'yicha
sanoat ishlab chiqarish hajmi,
mlrd.so'm, o'zgarish sur'ati, % da



Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2020-yilning yanvar-may oylarida viloyat sanoat korxonalari tomonidan 3581,4 mlrd.so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2019-yilning yanvar-may oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishning fizik hajm indeksi* 102,7 % ni tashkil etdi.


Sanoat ishlab chiqarish tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi 94,7 % ni tashkil etdi.

Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi.

Jami sanoat ishlab chiqarish fizik hajmi o'shining asosiy omili bo'lib, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashning – 66,6 % ga, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoat - 2,7 % ga, suv bilan ta'minlash kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish 16,0 % ga o'sishi kuzatilib, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatida – 89,6 % ga kamayishi kuzatildi.

***Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi** – ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.

Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi



Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 0,1 mlrd.so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,002 % ini tashkil etdi. 2020-yilning yanvar-may oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 3393,3 mlrd.so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 94,7 % ini tashkil etdi. O'z navbatida sanoatning mazkur tarmog'ida eng yuqori ulushga ega avtotransport vositalari, treylerlar va yarim pritseplar ishlab chiqarish 45,8 %, to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish 23,2 %, oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar ishlab chiqarish 17,4 % ni tashkil etganligini ko'rish mumkin.



Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim pritseplar ishlab chiqarish ulushi - 45,8 %.




To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish ulushi - 23,2 %.



Oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar ishlab chiqarish ulushi - 17,4 %.




Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish sanoati



Joriy yilning yanvar-may oylarida elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 164,6 mld. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 4,6 %) ni tashkil etdi. Shu bilan birga sanoat ishlab chiqarishning fizik indeksi 166,6 % ni tashkil qildi.

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 23,4 mld. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,654 % ni) tashkil etdi.

Mazkur tarmoqda eng yuqori ulushni, suv yig'ish, qayta ishslash va taqsimlash 64,9 %, chiqindilarni yig'ish, ishlov berish, yo'qotish, utilizasiya qilish 34,2 % ni tashkil etdi.





Ishlab chiqaradigan sanoati (qayta ishlash sanoati) da yirik sanoat korxonalarini tomonidan ayrim turdag'i sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish (natura shaklda)

Sanoat mahsulotlari	2019-yil yanvar-may	2020-yil yanvar-may	Farqi +/-
Gidroelektr stansiyalari ishlab chiqargan elektr energiyasi – mln. kVts:	143,3	138,1	-5,2
Issiqlik energiyasi – ming Gkal:	72,1	59,6	- 12,5
Yengil avtomobillar (maxsus yengil avtomobilarsiz) – dona:	18618	22150	3532
Maxsus yengil avtomobillar – dona:	3257	2770	- 487
Aroq – ming litr:	395	177,1	- 217,9
Uzum vinosi yoki uzum turupini disterlash natijasida olingan spirt nastoykalari konyak spirtidan tashqari – ming litr:	10,7	7,4	- 3,3
Tarkibida 15 % dan ko‘p spirt bo‘lgan boshqa tabiiy uzum vinolari – ming litr:	500	300	- 200
Yumshoq bug‘doy va spelta uni – tonna:	33118,5	39538,5	6420
Tozalangan o‘simlik yog‘i – tonna:	9778,8	5523	- 4255,8
Xo‘jalik sovuni – tonna:	3819	2088	- 1731
Paxta tolasi – tonna:	30646,4	35742,3	5095,9
Paxta chigit – tonna:	48330,4	57791	9460,6


Yirik korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, gidroelektr stansiyalari ishlab chiqargan elektr energiyasi 5,2 mln.kVtsga, issiqlik energiyasi 12,5 ming gkalga, maxsus yengil avtomobillari 487 donaga, aroq 217,9 ming litrga, tarkibida 15 % dan ko'p spirt bo'lgan boshqa tabiiy uzum vinolari 200 ming litrga, tozalangan o'simlik yog'i 4255,8 tonnaga, xo'jalik sovuni 1731 tonnaga kamaygan.

Yengil avtomobillar (maxsus yengil avtomobillarsiz), yumshoq bug'doy va spelta uni, paxta tolasi, paxta chigit sezilarli darajada oshgan.




Ishlab chiqarishning texnologik tarkibi bo'yicha ishlab chiqaradigan sanoat tarkibi, % da

2020-yil yanvar-may



2019-yil yanvar-may



Yuqori texnologiyali (red square)
O'rta-yuqori texnologiyali (purple square)
Quyi texnologiyali (blue square)
O'rta-quyi texnologiyali (dark blue square)

2019-yil yanvar-may oylarida o'rta-yuqori texnologiyali ishlab chiqarish 46,5 foizni tashkil qilgan bo'lsa, 2020-yil yanvar-may oylarida bu ko'rsatkich 47,5 foizga oshgan bo'lsa, yuqori texnologiyali ishlab chiqarish 0,02 foizdan, 0,01 foizga, o'rta-quyi texnologiyali ishlab chiqarish 5,2 foizdan 4,8 foizga, quyi texnologiyali ishlab chiqarish 43,0 foizdan 42,4 foizga kamayish kuzatildi.

Shuningdek, viloyat sanoatida yuqori texnologiyali tarmoqda 0,2 mlrd.so'mlik (2019-yil yanvar-may oylarida 0,6 mlrd.so'm), o'rta-yuqori texnologiyali tarmoqda 1700,7 mlrd.so'mlik (1461,2 mlrd.so'm), o'rta-quyi texnologiyali tarmoqda 173,0 mlrd.so'mlik (162,9 mlrd.so'm), quyi texnologiyali tarmoqda 1519,4 mlrd. so'mlik (1348,7 mlrd.so'm) mahsulotlar ishlab chiqarilgan.



Xorazm viloyati hududlari kesimida sanoat ishlab chiqarish hajmlari

Shahar va tumanlar nomi	2020-yil yanvar-may mlrd. so'm	Fizik hajm indeksi, % da
Xorazm viloyati	115	102,7
Urganch shahri	621,2	88,0
Xiva shahri	50,6	93,9
<i>shundan tumanlar,</i>		
Bog'ot tumani	112,6	102,9
Gurlan tumani	168,4	104,9
Qo'shko'pir tumani	87,3	115,1
Urganch tumani	120,4	112,3
Hazorasp tumani	135,2	113,4
Tuproqqa'l'a tumani*	1664,7	113,6
Xonqa tumani	175,1	74,4
Xiva tumani	79,5	121,1
Shovot tumani	193,1	142,7
Yangiariq tumani	145,0	138,7
Yangibozor tumani	28,3	48,5


Yuqoridagi jadval tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, Urganch shahri, Tuproqqa'l'a, Urganch, Gurlan va Shovot tumanlari sanoati yuqori darajada rivojlangan hududlar hisoblanadi. Ushbu shahar va tumanlarda asosan avtotransport vositalari, treylerlar va yarim pritseplar ishlab chiqarish, to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish, kiyim ishlab chiqarish, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish va qurilish materiallari ishlab chiqarish faoliyatları yuqori darajada rivojlangan.

***Tuproqqa'l'a tumani** – 2020 yil aprel oyida Hazorasp tumani hududidan alohida ajralib chiqqan tuman hisoblanadi.




Xorazm viloyatida ishlab chiqarish hajmida hududlar sanoat mahsulotlarining ulushi, fizik hajm indeksi, % da

Shahar va tumanlarning ishlab chiqarish salohiyatini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar natijasida, 2019-yil yanvar-may oylariga nisbatan, Shovot tumanida 142,7 %, Yangiariq tumanida 138,7 %, Xiva tumanida 121,1 %, Qo'shko'pir tumanida 115,1 %, Tuproqqa'l'a tumanida 113,6 %, Hazorasp tumanida 113,4 % va Urganch tumanida 112,3 % sanoat ishlab chiqarish hajmlari fizik hajm indeksining sezilarli darajada o'sishi kuzatildi.



**SANOAT ISHLAB CHIQARISH FIZIK HAJM INDEKSI
2019-YIL YANVAR-MAY OYLARIGA NISBATAN, % DA**



Viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p ulushga ega Tuproqqa'l'a tumani (viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmining 46,5 %), Urganch shahri (17,3 %), Shovot (5,4 %), Xonqa (5,0 %), hamda Gurlan (4,7 %) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Eng past ko'rsatkich esa Xiva tumani (2,2 %), Xiva shahri (1,4 %) hamda Yangibozor tumani (0,8 %) ga to'g'ri kelmoqda.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat mahsulotini
ishlab chiqarish. (mlrd. so'm)**

Iqtisodiy faoliyat turlari:	2020-yil yanvar-may	2019-yil yanvar-may
Iqtisodiy faoliyatning alohida turlari bo'yicha sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi	3581,4	3139,5
Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash	0,1	0,5
<i>ulardan:</i>		
Tog'-kon sanoatiga bog'liq boshqa faoliyat	0,1	0,5
Qayta ishslash faoliyati	3393,3	2973,3
<i>undan:</i>		
Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish	526,2	551,0
Ichimliklar, tamaki mahsulotlari ishlab chiqarish	95,5	80,1
To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish	822,0	633,5
Kiyim ishlab chiqarish	7,2	8,3
Teri va unga tegishli mahsulotlar ishlab chiqarish	1,5	2,4
Yog'och va po'kak buyumlar, poxol va to'qish uchun materilallari, ishlab chiqarish	3,1	3,4
Qog'oz va qog'oz mahsulotlarini ishlab chiqarish	5,8	7,5
Yozilgan materiallarni nashr qilish va aks ettirish	0,4	0,7



XORAZM VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI


Iqtisodiy faoliyat turlari:	2020-yil yanvar-may	2019-yil yanvar-may
Neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish	0,1	0,3
Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish	9,4	11,5
Asosiy farmasevtika	0,1	0,4
Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish	14,5	15,0
Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish	84,5	75,7
Metallurgiya sanoati	9,9	10,0
Mashina va uskunalardan tashqari tayyor buyumlar ishlab chiqarish	57,1	54,5
Kompyuter va elektron optikali mahsulotlar ishlab chiqarish	0,1	0,2
Elektr uskunalar ishlab chiqarish	10,2	9,9
Boshqa toifalarga kiritilmagan mashina va uskunalar ishlab chiqarish	42,0	92,4
Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim pritseplar ishlab chiqarish	1638,9	1347,3
Mebel ishlab chiqarish	12,0	16,0
Boshqa tayyor buyumlar ishlab chiqarish	45,7	45,9
Mashina va uskunalarni ta'mirlash va o'rnatish hamda tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish	6,9	7,4
Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash	164,6	145,8
Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish	23,4	20,0




Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulotlar turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash, kichik biznes subyektlari tomonidan zamonaviy texnologiyalar olib kelinishi natijasida viloyatda 2244,5 mlrd.so'mlik xalq iste'mol tovarlari ishlab chiqarilib, 2019-yilning yanvar-may oylariga nisbatan o'sish sur'ati 109,9 foizni tashkil etdi.

2020 yil yanvar-may



2019 yil yanvar-may



Oziq-ovqat mahsulotlari

Nooziq-ovqat mahsulotlari

Xalq iste'mol tovarlari ishlab chiqarishda oziq-ovqat mahsulotlari 518,4 mlrd.so'mni, alkogol ichimlikar 6,9 mlrd.so'mni va 1719,2 mlrd.so'mlik nooziq-ovqat mollari ishlab chiqarilib, o'tgan 2019-yilning yanvar-may oylariga nisbatan mos ravishda o'sish sur'ati 87,1 foiz, 51,9 foiz va 120 foizni tashkil qildi. Jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 62,7 foizni (2019 yil yanvar-may oylarida 65,0 foiz) tashkil qildi.

Nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishda engil sanoat mahsulotlari va kiyim ihslab chiqarish 99,5 mlrd.so'mni, avtomobil ishlab chiqarish 1442,5 mlrd.so'mni va 177,2 mlrd.so'mlik boshqa mahsulotlar ishlab chiqarilgan.



**Xorazm viloyati bo‘yicha iste’mol mahsulotlari ishlab
chiqarish hajmi, tarkibi va o‘sish sur’ati
(2020-yilning yanvar-may oylarida)**

Shahar va tumanlar nomi	Mlrd. so‘m	Jamiga nisbatan ulushi, % da	2019-yil yanvar-may oylariga nisbatan, % da
Xorazm viloyati	2244,5	100	109,9
Urganch shahri	283,4	12,5	77,0
Xiva shahri	29,7	1,3	77,0
<i>shundan tumanlar,</i>			
Bog‘ot tumani	52,9	2,4	114,1
Gurlan tumani	47,2	2,1	104,7
Qo‘shko‘pir tumani	24,7	1,1	88,1
Urganch tumani	88,7	4,0	105,1
Hazorasp tumani	40,1	1,8	76,2
Tuproqqa'l'a tumani	1449,2	64,5	128,1
Xonqa tumani	91,8	4,1	102,5
Xiva tumani	28,7	1,3	66,8
Shovot tumani	51,9	2,3	103,2
Yangiariq tumani	28,1	1,3	77,6
Yangibozor tumani	28,1	1,3	99,7

Shahar va tumanlar kesimida iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat bo‘yicha jami hajmidagi eng yuqori ulushi Tuproqqa'l'a tumaniga to‘g‘ri kelib, 64,5 % ni, shuningdek, Urganch shahri 12,5 % ni, Urganch tumani 4,0 % ni, Xonqa tumani 4,1 % ni hamda Bog‘ot tumani 2,4 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida viloyat o'sish sur'ati (109,9 %) darajasidan yuqori ko'rsatkich Tuproqqa'la tumani (128,1 %), Bog'ot tumani (114,1 %), Urganch tumani (105,1 %), Gurlan tumani (104,7 %), Shovot tumani (103,2 %) hamda Xonqa tumanida (102,5 %) qayd etildi.



**Shahar va tumanlar bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlari
ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati
(2020-yilning yanvar-may oylarida)**

Shahar va tumanlar nomi	Mlrd. so'm	Jamiga nisbatan ulushi, % da	2019-yil yanvar-may oylariga nisbatan, % da
Xorazm viloyati	518,4	100	87,1
Urganch shahri	179,0	34,5	73,7
Xiva shahri	18,8	3,6	89,3
<i>shundan tumanlar,</i>			
Bog'ot tumani	42,5	8,2	120,0
Gurlan tumani	22,0	4,2	84,9
Qo'shko'pir tumani	14,0	2,7	80,2
Urganch tumani	64,6	12,5	117,5
Hazorasp tumani	20,9	4,0	70,8
Tuproqqa'l'a tumani	4,7	0,9	66,7
Xonqa tumani	63,6	12,3	104,9
Xiva tumani	16,4	3,2	66,1
Shovot tumani	38,5	7,4	106,3
Yangiariq tumani	14,5	2,8	71,6
Yangibozor tumani	18,9	3,6	98,7

Shahar va tumanlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Urganch shahriga to‘g‘ri kelib, 34,5 %, shuningdek, Urganch tumani 12,5 % ni, Xonqa tumani 12,3 % ni, Bog‘ot tumani 8,2 % ni hamda Shovot tumani 7,4 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining o‘sish sur’atida eng yuqori ko‘rsatkich Bog‘ot tumani (120,0 %), Urganch tumani (117,5 %), Shovot tumani (106,3 %) va Xonqa tumani (104,9 %)ni tashkil qildi.

**Shahar va tumanlar bo‘yicha nooziq-ovqat mahsulotlari
ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o‘sish sur’ati
(2020-yilning yanvar-may oylarida)**

Shahar va tumanlar nomi	Mlrd. so‘m	Jamiga nisbatan ulushi, % da	2019-yil yanvar-may oylariga nisbatan, % da
Xorazm viloyati	1719,2	100	120,0
Urganch shahri	97,5	5,7	87,2
Xiva shahri	10,8	0,6	62,1
<i>shundan tumanlar,</i>			
Bog‘ot tumani	10,4	0,6	95,1
Gurlan tumani	25,2	1,5	131,5
Qo‘shko‘pir tumani	10,7	0,6	101,0
Urganch tumani	24,1	1,4	81,9
Hazorasp tumani	19,2	1,1	83,0
Tuproqqa'l'a tumani	1444,5	84,0	128,5
Xonqa tumani	28,2	1,6	97,6
Xiva tumani	12,3	0,7	67,7
Shovot tumani	13,4	0,8	95,3
Yangiariq tumani	13,6	0,8	85,1
Yangibozor tumani	9,2	0,5	101,9

Shahar va tumanlar kesimida nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Tuproqqal'a tumaniga to‘g‘ri kelib, 84,0 %, shuningdek, Urganch shahri 5,7 % ni, Xonqa tumani 1,6 % ni, Gurlan tumani 1,5 % ni hamda Urganch tumani 1,4 % ni tashkil etdi.


Shuningdek, nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining o‘sish sur’atida viloyat o‘sish sur’ati (120,0 %) darajasidan yuqori ko‘rsatkich Gurlan tumani (131,5 %), Tuproqqa’la tumani (128,5 %) ni tashkil qildi.



Shahar va tumanlar bo‘yicha iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarishning o‘sish sur’ati (2019-yil yanvar-may oylariga nisbatan, % da)

Iste’mol mahsulotlarini ishlab chiqarish 2019-yil yanvar-may oylariga nisbatan Gurlan tumanida 131,5 % ga, Tuproqqal'a tumanida 128,5 % ga, Yangibozor tumanida 101,9 % ga, Qo‘shko‘pir tumanida 101,0 % ga sezilarli darajada o‘sgan.

Qolgan barcha tumanlarda o‘sish sur’ati 100 % dan kamayganini ko‘rish mumkin .





**Aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan sanoat mahsulotlari
va iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish
(2020-yil yanvar-may oylarida, ming so‘m)**


Shahar va tumanlar nomi	Sanoat mahsulotlari	2019-yil yanvar-may oylariga nisbatan, % da	Iste’mol mahsulotlari	2019-yil yanvar-may oylariga nisbatan, % da
Xorazm viloyati	1915,9	101,0	1200,7	108,1
Urganch shahri	4314,0	86,7	1968,4	75,9
Xiva shahri	547,8	92,5	321,3	75,8
<i>shundan tumanlar,</i>				
Bog‘ot tumani	686,8	101,1	322,6	112,1
Gurlan tumani	1138,9	103,3	319,4	103,2
Qo‘siko‘pir tumani	508,3	113,1	143,5	86,5
Urganch tumani	608,2	110,3	448,5	103,2
Hazorasp tumani	683,6	111,3	202,8	74,8
Tuproqqal’a tumani	32963,8	112,0	28697,7	126,3
Xonqa tumani	942,2	73,2	494,2	100,9
Xiva tumani	548,2	119,1	197,5	65,7
Shovot tumani	1139,1	140,3	306,2	101,4
Yangiariq tumani	1253,2	136,5	242,9	76,4
Yangibozor tumani	324,9	47,7	322,2	98,1

Yuqoridagi tahlily jadvalga asosan joriy yilning yanvar-may oylarida aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish viloyat bo‘yicha 1915,9 ming so‘mni tashkil qilib, o‘tgan yilning shu davriga nisbatan o‘sish sur’ati 101,0 foizga o‘sishi kuzatildi. Shahar va tumanlar kesimida tahlili shuni ko‘rsatmoqdaki, 2019-yil yanvar-may oylarida Tuproqqal’a tumani 27539,5 ming so‘mdan 2020-yil yanvar-may oylarida 32963,8 ming so‘mga, Yangiariq tumanida 688,0 ming

so‘mdan 1253,2 ming so‘mga, Shovot tumani 627,9 ming so‘mdan 1139,1 ming so‘mga, Xiva tumanida 330,6 ming so‘mdan 548,2 ming so‘mga oshganligi kuzatildi. Sanoati rivojlangan Tuproqqa’la tumanida (32963,8 ming so‘m), Urganch shahrida (4314,0 ming so‘m) ga o‘rtacha viloyat darajasi ko‘rsatkichidan (1915,9 ming so‘m) yuqoriligini ko‘rsatmoqda.

Aholi jon boshiga iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarilishi aholi jon boshiga iste’mol tovarlari ishlab chiqarish viloyat bo‘yicha 1200,7 ming so‘mni tashkil qilib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan o‘sish sur’ati 108,1 foizga o‘sishi kuzatildi. Shahar va tumanlar kesimida tahlil shuni ko‘rsatmoqdaki, 2019-yil yanvar-may oylarida Tuproqqa’la tumani 22721,4 ming so‘mdan 2020 yil yanvar-may oylarida 28697,7 ming so‘mga, Shovot tumani 301,8 ming so‘mdan 306,2 ming so‘mga, Bog‘ot tumani 287,7 ming so‘mdan 322,6 ming so‘mga Urganch tumani 434,7 ming so‘mdan 448,5 ming so‘mga o‘sgani kuzatildi.

Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi (2020-yil yanvar-may oylarida, % da)



Shahar va tumanlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Xiva shahri (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 100 %), Xiva tumani (100 %), Yangibozor tumani (100 %), Bog‘ot tumani (69,1 %), Urganch tumani (67,8 %), Gurlan tumani (45,4 %) ni tashkil qildi.


Viloyatda yanvar-may oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 804,4 mlrd.so‘mlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 22,5 % ni tashkil etdi. Shahar va tumanlar kesimida

sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida kichik biznes subyektlarining ulushi tahlili shuni ko'rsatdiki, Tuproqqal'a tumani (0,4 %), Shovot tumani (17,2 %), Yangiariq tumani (19,1 %), sanoat ishlab chiqarish hajmlaridagi kichik biznes subyektlari ulushining kamligini, mazkur hudularda joylashgan yirik sanoat korxonalarining ishlab chiqarish hajmlari yuqori ekanligi bilan izohlash mumkin.

Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 377,0 mlrd.so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi. Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarining umumiy ishlab chiqarishdagi tutgan ulushi 10,5 % ni tashkil etdi.

Viloyatda faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalar (2020-yil 1-iyul holatiga ko'ra)





Viloyatda 3,2 mingta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 2 mingtasi (faoliyat yuritayotgan korxonalar umumiy sonining 50,7 %) Urganch shahriga, 691 tasi (21,1 %), Urganch tumaniga 377 tasi (11,5 %), Xiva shahriga, 302 tasi (9,2 %), Xonqa tumaniga 289 tasi (8,8 %), Xiva tumaniga 284 tasi (8,7 %) to'g'ri kelmoqda.

2020-yil yanvar-may oylarida viloyatda 506 ta yangi sanoat korxonalari tashkil etildi. Ulardan eng yuqori bo'lgan Urganch shahrida 82 ta, Qo'shko'pir tumanida 57 ta, Xonqa tumanida 54 ta, Yangibozor tumanida 46 ta va 48 ta Xiva shahrida tashkil etilgan.

Xorazm viloyati statistika boshqarmasi
Sanoat statistikasi bo'limi.
Aloqa telefoni: (62) 224-64-99